



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi	
Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	



MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI VA USULLARI

Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
davlat Universiteti mustaqil izlanuvchisi
<https://orcid.org/0000-0003-1173-4667>
d.ruzimov@mail.ru

Abstract. This article examines the theoretical foundations and practical instruments for the use of green investments in regional economic development as an integrated system. The central thesis of the study is that the volume of green capital directed to a region depends not so much on the amount of public budget funds allocated as on the quality of the institutional framework that transforms public participation into private investment. From this perspective, the interrelationship among the principles of additionality, regional differentiation, the multiplier effect, and independent verification is explored. The comparative effectiveness of financing mechanisms is evaluated using the leverage coefficient, and a set of consistent recommendations is proposed for the regions of Uzbekistan.

Keywords: green investments, regional economy, sustainable development, additionality, blended finance, green bonds, public-private partnership, investment multiplier, environmental efficiency, regional differentiation, taxonomy, verification, leverage coefficient, economic growth.

Annotatsiya. Maqolada mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda yashil investitsiyalardan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy vositalari yaxlit tizim sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotning markaziy tezisi shundan iboratki, mintaqaga yo'naltirilgan yashil kapital hajmi ajratilgan byudjet mablag'lari miqdoriga emas, balki davlat ishtirokini xususiy qo'yilmalarga aylantiruvchi institutsional konstruksiyaning sifatiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, additivlik, mintaqaviy differentsiatsiya, multiplikativ samara va mustaqil verifikatsiya kabi tamoyillarning o'zaro bog'liqligi ochib berilgan, moliyalashtirish usullarining qiyosiy samaradorligi leveraj koeffitsiyenti orqali baholangan hamda O'zbekiston mintaqalari uchun izchil tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: yashil investitsiyalar, mintaqaviy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, additivlik, aralash moliyalashtirish, yashil obligatsiyalar, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya multiplikatori, ekologik samaradorlik, mintaqaviy differentsiatsiya, taksonomiya, verifikatsiya, leveraj koeffitsiyenti, iqtisodiy o'sish.

Аннотация. В статье теоретические основы и практические инструменты использования зелёных инвестиций в региональном экономическом развитии рассматриваются как целостная система. Центральный тезис исследования заключается в том, что объём зелёного капитала, направляемого в регион, зависит не столько от размера выделяемых бюджетных средств, сколько от качества институциональной конструкции, обеспечивающей трансформацию государственного участия в частные инвестиции. С этих позиций раскрывается взаимосвязь таких принципов, как аддитивность, региональная дифференциация, мультипликативный эффект и независимая верификация, проводится сравнительная оценка эффективности различных методов финансирования на основе коэффициента леведреджа, а также формулируются последовательные рекомендации для регионов Узбекистана.

Ключевые слова: зелёные инвестиции, региональная экономика, устойчивое развитие, аддитивность, смешанное финансирование, зелёные облигации, государственно-частное партнёрство, инвестиционный мультипликатор, экологическая эффективность, региональная дифференциация, таксономия, верификация, коэффициент леведреджа, экономический рост.

KIRISH

Yashil investitsiyalar bugungi kunda ekologik siyosatning yordamchi vositasi bo'lishdan to'xtab, jahon kapital bozorlaridagi eng yirik tarkibiy siljishlardan biriga aylandi. Xalqaro energetika agentligining baholashiga ko'ra, 2024-yilda toza energetika va ekologik infratuzilmaga yo'naltirilgan qo'yilmalar hajmi ikki trillion dollar atrofida shakllanib, an'anaviy yoqilg'i sektoriga kiritilgan sarmoyalardan qariyb ikki barobar ko'p bo'ldi. Biroq bu raqamning ta'sirchanligi ortida ancha noqulay haqiqat yashiringan: mazkur oqimning yetmish foizdan ortig'i bir nechta rivojlangan mamlakat va Xitoy hududida to'planib qolgan bo'lib, jahon aholisining katta qismini hamda



energiya iste'moli eng tez o'sayotgan bozorlarni o'zida jamlagan qolgan davlatlar umumiy hajmning atigi o'n besh foiziga da'vogar bo'lmoqda. Ayni shu nomutanosiblik milliy chegaralar ichida ham takrorlanadi, ya'ni yashil kapital odatda mamlakatning bir nechta hududida to'planib, boshqa hududlarni deyarli chetlab o'tadi [1].

Bu tanlovchanlikni tabiiy resurs salohiyatidagi tafovut bilan izohlab bo'lmaydi, chunki quyosh radiatsiyasi yoki shamol rejimi bo'yicha eng qulay ko'rsatkichlarga ega hududlar ko'pincha investitsiyalarni jalb qilish reytingida oxirgi o'rinlarni egallaydi. Kapital ekologik zaruratning kattaligiga emas, balki xavfga moslashtirilgan daromadlilikning ishonchlilikiga qarab harakatlanadi va shu ma'noda yashil loyiha investor nazarida boshqa har qanday loyihadan farq qilmaydi: uning eng muhim xususiyati kelajakdagi pul oqimining qanchalik huquqiy himoyalangani va shartnoma bilan qanchalik mustahkam belgilanganidir. Shundan kelib chiqadiki, mintaqaviy darajada yashil investitsiyalardan foydalanish muammosi mohiyatan moliyaviy resurs topish muammosi emas, balki ekologik maqsadni bankka taqdim etish mumkin bo'lgan, tekshiriladigan va sud tartibida himoyalangan moliyaviy da'voga aylantirish muammosidir [2].

Mazkur aylantirishning birinchi sharti sifatida iqtisodiy adabiyotlarda additivlik qoidasi tan olinadi. Uning talabiga ko'ra, davlat resursi faqat davlat ishtirokisiz umuman amalga oshmaydigan loyihalarga yo'naltirilishi lozim. Qoidaning mantiqi oddiy ko'rinsa-da, uni amalda buzish juda oson: agar loyiha bozor sharoitida ham daromadli bo'lsa va xususiy investor uni mustaqil moliyalashtirishga tayyor bo'lsa, unga beriladigan subsidiya hech qanday yangi iqtisodiy faollikni yaratmay, shunchaki investorning foydasini oshiradi [3].

Xalqaro tashkilotlarning baholashlariga ko'ra, additivlik nazorati o'rnatilmagan dasturlarda ajratilgan mablag'ning chorak qismidan ko'prog'i baribir amalga oshiriladigan loyihalarga sarflanadi va bu holat statistikada muvaffaqiyat sifatida qayd etiladi, chunki loyihalar haqiqatan ham ishga tushgan bo'ladi. Additivlikni haqiqiy nazorat qilish uchun har bir loyiha bo'yicha davlat ishtirokisiz ichki daromadlilik normasi hisoblanishi va uning maqbul darajadan pastligi hujjatlashtirilishi talab qilinadi. Aks holda, tamoyil deklaratsiya darajasida qolib ketadi [4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda yashil investitsiyalar samaradorligini ta'minlovchi asosiy tamoyillar sifatida additivlik, mintaqaviy differentsiatsiya, multiplikativ samara va mustaqil verifikatsiya ko'rsatiladi. Additivlik tamoyiliga ko'ra, davlat mablag'lari xususiy investorlarsiz amalga oshmaydigan loyihalarga yo'naltirilishi lozim. Hududlarning iqtisodiy va institutsional salohiyati turlicha bo'lgani sababli moliyalashtirish shartlarini mintaqalar kesimida differentsiatsiyalash muhim hisoblanadi.

Yashil loyihalar ekologik natijalar bilan birga bandlik, mahalliy ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi va soliq tushumlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, mustaqil verifikatsiya, oshkoralik va mahalliy aholining loyihalardan manfaatdorligi xususiy kapitalni jalb qilish hamda loyihalarni samarali amalga oshirishning muhim shartlaridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli, qiyosiy, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Yevropa Ittifoqi, Fransiya va Daniyaning yashil investitsiyalarni moliyalashtirish tajribasi O'zbekiston mintaqalari sharoiti bilan taqqoslandi. Loyihalarning iqtisodiy samaradorligi multiplikator va leveraj koeffitsiyentlari, davlat qo'llab-quvvatlashining zarurati esa additivlik tamoyili asosida baholandi.

Hududlarni tahlil qilishda ularning tabiiy resurslari, infratuzilmasi, moliyaviy va institutsional salohiyati hisobga olindi. Ilmiy materiallarni tizimlashtirish, matnning lingvistik aniqligini tekshirish va natijalarni izchil bayon etishda sun'iy intellekt vositalaridan yordamchi vosita sifatida 10 foizgacha foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida bayon etilgan talablar amaliyotda ma'lum moliyaviy vositalar orqali gavdalanadi va bu vositalarning har biri o'ziga xos institutsional muhitni talab qiladi. Ularning ichida eng ko'p qo'llaniladigani aralash moliyalashtirish bo'lib, uning mohiyati davlat yoki donor mablag'ini birinchi yo'qotishni qoplovchi qatlam sifatida joylashtirib, xususiy investor uchun xavf profilini maqbul darajaga tushirishdan iborat. Bu yechimning byudjet uchun jozibadorligi shundaki, davlat mablag'i sarflanmaydi, balki bog'lanadi, ya'ni real xarajatga faqat yo'qotish yuz bergan taqdirdagina aylanadi. Shu sababli uning byudjetga o'rtaacha ta'siri nominal hajmdan sezilarli darajada past bo'ladi. To'g'ri tuzilgan sxemada bir dollar davlat resursi to'rt-olti dollar xususiy kapitalni harakatga keltiradi, biroq bunday natijaga erishish uchun birinchi yo'qotish qatlamini boshqaradigan va uni kredit tahlili asosida narxlaydigan ixtisoslashgan institut zarur bo'ladi [5].



Qarz bozori orqali resurs jalb qilishning mintaqaviy shakli sifatida munitsipal yashil obligatsiyalar alohida ajralib turadi, chunki ularda mablag' aniq belgilangan loyihalar ro'yxatiga bog'lanadi va maqsadli sarflanishi yillik hisobot orqali nisbatan oson kuzatiladi. O'zbekiston bu yo'nalishda 2021-yilda birinchi suveren emissiyani Londonda joylashtirish orqali dastlabki tajriba to'plagan bo'lsa-da, mazkur tajribani mintaqaviy va korporativ darajaga kengaytirish milliy taksonomiyaning mavjudligini taqozo etadi. Taksonomiyasiz emitent xalqaro investor talab qiladigan sertifikatlashni har safar alohida o'tkazishga majbur bo'ladi va bu xarajat ko'p hollarda yashil obligatsiya beradigan narx ustunligidan, ya'ni odatda o'n besh-o'ttiz bazis punkt atrofida shakllanadigan farqdan oshib ketadi. Natijada instrumentning iqtisodiy mantiqi yo'qoladi [6].

Ishlab chiqarish quvvatlarini moliyalashtirishda esa so'nggi o'n yillikda hal qiluvchi o'zgarish ma'muriy tarifdan raqobat auksionlariga o'tish bilan bog'liq bo'ldi. Buyuk Britaniya tajribasi bu siljishning miqyosini yaqqol ko'rsatadi: dengizdagi shamol energiyasi uchun kelishilgan narx 2015-yildagi bir megavatt-soat uchun taxminan 150 funtdan 2022-yilga kelib 40 funtdan pastga tushdi, ya'ni raqobat va hajm hisobiga xarajat qariyb to'rt barobar qisqardi. Shu bilan birga, auksionning muvaffaqiyati narxni pasaytirish qobiliyatidan emas, balki shartnoma tuzilishidan kelib chiqadi: muddat aktivning iqtisodiy hayotiga mos kelishi, tarmoqqa ulanish kafolatlanishi va tanlov mezonini faqat narx bilan cheklanmay, amalga oshirish ehtimoli hamda mahalliy hissani ham hisobga olishi shart. Muddati qisqa yoki har yili qayta ko'rib chiqiladigan qo'llab-quvvatlash rejimlari qanchalik saxiy bo'lmasin, institutsional investorlarni jalb qila olmaydi, chunki pensiya jamg'armalari va sug'urta kompaniyalari o'z majburiyatlarini o'nlab yillar bo'yicha moslashtiradi va aktivning xizmat muddati davomida tartibga solishdagi o'zgarishlar xavfini qabul qilmaydi [7].

Rivojlanayotgan mintaqalarda xususiy investorni to'xtatib turadigan asosiy to'siq ko'pincha loyihaning texnik murakkabligi emas, balki tartibga solish va kontragent bilan bog'liq noaniqlik bo'lgani uchun kafolat va sug'urta instrumentlari boshqa vositalarga nisbatan aniqroq manzilli ta'sir ko'rsatadi. Qisman kredit kafolati, valyuta xavfini qoplash mexanizmi va siyosiy xavf sug'urtasi aynan investor narxlay olmaydigan xavf turlarini o'z zimmasiga oladi va byudjet uchun ular subsidiyadan farqli ravishda shartli majburiyat sifatida qayd etiladi. Xuddi shu mantiq davlat-xususiy sheriklik shartnomalariga ham taalluqli bo'lib, bunda muvaffaqiyat xavflarni taqsimlash sifati bilan belgilanadi: qurilish va operatsion xavf xususiy sherikda, tartibga solish hamda talab bilan bog'liq xavf davlatda qolgan holatda shartnoma narxi maqbul darajada shakllanadi, barcha xavf xususiy tomonga yuklanganda esa u yo narxga qo'shiladi, yo loyihaning umuman tuzilmasligiga olib keladi [8].

Aholi jamg'armalarini yashil aylanmaga kiritishning eng ixcham yechimini Niderlandiya taklif etgan bo'lib, u yerda akkreditatsiyalangan yashil fondlarga joylashtirilgan mablag'lardan olinadigan daromad soliqlardan ozod qilinadi, fondlar esa aktivlarining kamida yetmish foizini sertifikatlangan ekologik loyihalarga yo'naltirish majburiyatini oladi. Sxema o'n milliard yevrodan ortiq uy xo'jaliklari mablag'ini harakatga keltirdi va byudjet uchun uning qiymati jalb qilingan hajmning yiliga taxminan bir foizini tashkil etdi. Bu esa to'g'ridan-to'g'ri subsidiya dasturlari bilan solishtirganda favqulodda qulay nisbat hisoblanadi. Mazkur misol umumiy qonuniyatni ko'rsatadi: davlat resursini bevosita sarflashdan uni kafolat, imtiyoz yoki xavfni qoplash shakliga o'tkazish bir xil byudjet imkoniyati bilan bir necha barobar katta investitsiya hajmini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi [9].

1-jadval. Yashil investitsiya usullarining qiyosiy tavsifi va qo'llanilish shartlari

Usul	Qo'llash sohasi	Byudjet yuki	Leveraj (xus. : davl.)	Zaruriy institutsional shart
Aralash moliyalashtirish	Yirik infratuzilma, energetika	O'rta	4-6 : 1	Birinchi yo'qotish qatlamini narxlovchi institut
Yashil obligatsiyalar	Munitsipal loyihalar, transport	Past	3-5 : 1	Milliy taksonomiya va sertifikatlash tizimi
Raqobat auksioni (CfD)	Qayta tiklanuvchi energetika	Shartli	6-9 : 1	15+ yillik shartnoma, tarmoqqa ulanish kafolati
Kafolat instrumentlari	O'rta biznes, agrosanoat	Juda past	5-8 : 1	Kafolat fondi va xavfni baholash uslubi
Davlat-xususiy sheriklik	Kommunal xo'jalik, chiqindi	O'rta	2-4 : 1	Xavflarni taqsimlash bo'yicha huquqiy baza
Soliq imtiyozlari	Aholi jamg'armasi, kichik biznes	Past	6-10 : 1	Akkreditatsiya va maqsadli sarf nazorati
To'g'ridan-to'g'ri subsidiya	Pilot loyihalar, ilmiy ishlanmalar	Yuqori	1-2 : 1	Additivlik tahlili va natija monitoringi

Manba: OECD, IEA, Convergence va Climate Bonds Initiative ma'lumotlari asosida muallif umumlashtirmasi.




1-jadvalda keltirilgan qiyosiy ma'lumotlar yashil moliya sohasidagi ko'pchilikning intuitiv tasavvuriga zid keladigan qonuniyatni ochib beradi: byudjetga eng og'ir tushadigan vosita ayni paytda eng past natijani beradi, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri subsidiya har bir davlat dollariga atigi bir-ikki dollar xususiy kapital jalb qilgani holda, byudjet yuki eng past hisoblangan kafolat instrumentlari va soliq imtiyozlari bu ko'rsatkichni besh-o'n baravarga yetkazadi.

Bundan tashqari, jadvaldagi oxirgi ustun har bir vositaning o'ziga xos institutsional shartga bog'liqligini ko'rsatadi. Bu shart bajarilmagan holatda vosita kutilgan natijani bermasligini, ba'zan esa umuman teskari ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlash lozim: taksonomiyasiz chiqarilgan obligatsiya sertifikatlash xarajatini oshiradi, uzoq muddatli shartnomasiz o'tkazilgan aukcion narxni pasaytirsada, moliyalashtirishni ta'minlay olmaydi.

Nihoyat, mazkur vositalar bir-birini almashtirmaydi, balki loyiha hayotining turli bosqichlariga mos keladi: pilot bosqichida subsidiya muqarrar, kengaytirish bosqichida aukcion va kafolat ustunlik qiladi, bozor yetilganda esa obligatsiya hamda soliq mexanizmlari asosiy yukni oladi [10].

Mintaqalarda yashil investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari

(2024-yil, mln AQSh dollari)



1-rasm. O'zbekiston mintaqalarida yashil investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari (2024-yil)

O'zbekistonning hozirgi holatini ushbu tahlil doirasida baholaganda, mamlakat bo'yicha yashil investitsiyalarning umumiy hajmi 2024-yilda taxminan 3,4 milliard dollarni, ya'ni yalpi ichki mahsulotning 0,9 foizini tashkil etgani ma'lum bo'ladi. Yetakchi Yevropa iqtisodiyotlarida esa mazkur ko'rsatkich 2,5–3,8 foiz oraliqida shakllanadi. Biroq tafovutning asosiy sababi faqat mutlaq hajmdagi farqda emas, balki xususiy kapitalning davlat mablag'lariga nisbati 1,6 ga tengligida ham namoyon bo'ladi. Xalqaro amaliyotda bu nisbat to'rt-sakkiz baravarni tashkil etadi va aynan u har bir byudjet dollarining yakuniy natijasini belgilaydi. Boshqacha aytganda, mavjud byudjet imkoniyatlari o'zgarmagan holda ham leveraj koeffitsiyentini ikki baravar oshirish investitsiyalar hajmini shunga mos ravishda ko'paytiradi. Bu yo'l qo'shimcha ajratmalar izlashga nisbatan ancha maqbul hisoblanadi [11].

Moliyalashtirish manbalarining hududiy taqsimotini aks ettiruvchi 1-rasm ushbu umumiy tashxisni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitadi. Navoiy va Toshkent viloyatlaridagi yuqori ko'rsatkichlar, asosan, xalqaro moliya institutlari resurslari va yirik sanoat korxonalarining o'z mablag'lari hisobiga shakllangan. Shu sababli mazkur holatni mintaqaviy siyosat natijasi bilan bir qatorda hududlarning sanoat tuzilmasi ta'siri sifatida ham baholash maqsadga muvofiq. Xorazm va Qoraqalpog'iston kabi hududlarda mintaqaviy byudjet ulushi nisbatan sezilarli bo'lsa-da, xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjud. Bu davlat mablag'larining xususiy kapitalni jalb etishdagi rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Yashil obligatsiyalar barcha hududlarda qayd etilgan bo'lsa-da, ular markazlashgan tarzda joylashtirilib, mintaqalarga taqsimlanadi. Mintaqalarning o'z nomidan chiqarilgan emissiyalarining hozircha mavjud emasligi hududiy darajada mustaqil qarz salohiyatini bosqichma-bosqich shakllantirish masalasini kun tartibiga qo'yadi [12].



Ushbu tahlildan kelib chiqadigan amaliy yechimlar muayyan ketma-ketlikni talab qiladi, chunki ularning ayrimlari boshqa choralarni amalga oshirish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Milliy yashil taksonomiyani qabul qilish va uni Yevropa hamda ASEAN klassifikatsiyalari bilan muvofiqlashtirish ushbu ketma-ketlikning boshida turadi. Chunki taksonomiya obligatsiyalar bozori, oshkoralik talablari va kafolat mexanizmlarining barchasi uchun umumiy huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi hamda uni shakllantirish katta miqdordagi byudjet xarajatlarini talab etmaydi. Shundan so'ng turli vazirlik va agentliklar doirasida faoliyat yuritayotgan yashil kredit liniyalarini yagona kafolat va birinchi yo'qotishni qoplash mexanizmi asosida muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda institutning to'g'ridan-to'g'ri kredit berishidan ko'ra tijorat banklari orqali ishlash modelini tanlashi samaraliroq bo'ladi, chunki mavjud kredit tahlili salohiyati va filiallar tarmog'idan foydalanish iqtisodiy jihatdan qulaydir [13].

Keyingi qadam sifatida ma'muriy tartibda belgilanadigan tariflardan kamida o'n besh yillik muddatga mo'ljallangan raqobat auksionlariga to'liq o'tish ko'zda tutiladi. Mamlakatda quyosh energetikasi bo'yicha o'tkazilgan auksionlar tajribasi bunday o'tishning texnik jihatdan amalga oshirilishi mumkinligini tasdiqlagan. Auksion rejimining barqaror ishlashi uchun yirik korxonalar va listing kompaniyalari tomonidan barqarorlik hisobotlarini bosqichma-bosqich joriy etish talab etiladi. Chunki investorlar uchun taqqoslanadigan ma'lumotlarning mavjudligi kapitalni asoslangan mezonlar bo'yicha taqsimlash imkonini beradi. Mazkur talablarning ishonchligi mablag'larni taqsimlovchi organlardan tashqarida faoliyat yuritadigan mustaqil verifikatsiya tuzilmasining mavjudligi bilan yanada mustahkamlanadi. Bu natijalarni xolis baholash va yashil moliya dasturlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [14].

Mintaqaviy tenglikni ta'minlash masalasi alohida yondashuvni talab qiladi. Chunki yashil investitsiyalar hajmi past bo'lgan hududlarda asosiy to'siq faqat mablag'larning yetishmasligi emas, balki bankka taqdim etish mumkin bo'lgan darajadagi loyiha hujjatlarini tayyorlash salohiyatining cheklanganligidir. Xalqaro amaliyotda ushbu vazifa loyiha tayyorlash fondlari orqali hal qilinadi. Bunday fondlarning xarajatlari odatda keyinchalik jalb qilingan investitsiyalar hajmining bir-ikki foizini tashkil etadi va shu jihatdan davlat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi [15].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumlashtirib aytganda, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda yashil investitsiyalardan foydalanish samarasi ajratilgan mablag' miqdori bilan emas, balki tamoyillarning o'zaro izchilligi va tanlangan vositalarning mavjud institutsional muhitga muvofiqligi bilan belgilanadi. Additivlik nazorati bo'lmasa, resurslar allaqachon amalga oshirilishi mumkin bo'lgan loyihalarga yo'naltiriladi, differensiatsiyasiz taqsimot hududiy tafovutlarni chuqurlashtiradi, mustaqil verifikatsiyasiz esa yashil belgi bozor uchun yetarli darajada ahamiyat kasb etmaydi. Mazkur tamoyillarning har biri alohida emas, balki o'zaro uyg'unlikda samarali ishlaydi.

Moliyaviy vositalarni tanlashda ustuvor yo'nalish davlat resurslarini bevosita sarflashdan xavflarni qoplash mexanizmlariga o'tkazishdan iborat. O'zbekiston mintaqalari uchun eng katta imkoniyat qo'shimcha byudjet ajratmalaridagina emas, balki har bir davlat dollariga to'g'ri keladigan xususiy kapital ulushini hozirgi 1,6 ko'rsatkichidan xalqaro darajadagi 4–5 ko'rsatkichgacha oshirishda namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. International Energy Agency. *World Energy Investment 2024* [Elektron resurs]. – Paris : IEA, 2024. – URL: <https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2024> (murojaat sanasi: 02.08.2026).
2. OECD. *Scaling Up the Mobilisation of Private Finance for Climate Action in Developing Countries: Challenges and Opportunities for International Providers* [Elektron resurs]. – Paris : OECD Publishing, 2023. – 112 p. – DOI: 10.1787/17a88681-en.
3. Climate Bonds Initiative. *Sustainable Debt Global State of the Market 2024* [Elektron resurs]. – London : Climate Bonds Initiative, 2025. – URL: <https://www.climatebonds.net/data-insights/publications/global-state-market-2024> (murojaat sanasi: 02.08.2026).
4. Convergence. *State of Blended Finance 2024* [Elektron resurs]. – Toronto : Convergence, 2024. – URL: <https://www.convergence.finance/resource/state-of-blended-finance-2024/view> (murojaat sanasi: 02.08.2026).
5. International Renewable Energy Agency. *Renewable Energy Auctions: Status and Trends Beyond Price* [Elektron resurs]. – Abu Dhabi : IRENA, 2019. – URL: <https://www.irena.org/publications/2019/Dec/Renewable-energy-auctions-Status-and-trends-beyond-price> (murojaat sanasi: 02.08.2026).
6. Amundi; International Finance Corporation. *Emerging Market Green Bonds 2023* [Elektron resurs]. – Paris ; Washington, DC : Amundi ; IFC, 2024. – URL: <https://www.ifc.org/en/insights-reports/2024/emerging-market-green-bonds-2023> (murojaat sanasi: 02.08.2026).



7. European Commission. *Cohesion Policy Legislation 2021–2027* [Elektron resurs]. – Brussels : European Commission, 2021. – URL: https://ec.europa.eu/regional_policy/information-sources/legislation-and-guidance/regulations_en (murojaat sanasi: 02.08.2026).
8. Climate Policy Initiative. *Global Landscape of Climate Finance 2024: Insights for COP29* [Elektron resurs]. – San Francisco : Climate Policy Initiative, 2024. – URL: <https://www.climatepolicyinitiative.org/publication/global-landscape-of-climate-finance-2024/> (murojaat sanasi: 02.08.2026).
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha 2024-yil yakuni bo'yicha yillik hisobot* [Elektron resurs]. – Toshkent : O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2025. – 45 b. – URL: https://www.imv.uz/media/filestore/Yillik_hisobot_2024-yil.pdf (murojaat sanasi: 02.08.2026).
10. Asian Development Bank. *Green Finance Development in CAREC Countries: Challenges and Possibilities* [Elektron resurs]. – Manila : Asian Development Bank, 2026. – URL: <https://www.adb.org/publications/green-finance-carec-countries> (murojaat sanasi: 02.08.2026).
11. IPCC. *Climate Change 2022: Mitigation of Climate Change: Contribution of Working Group III to the Sixth Assessment Report of the Intergovernmental Panel on Climate Change* / ed. by P.R. Shukla, J. Skea, R. Slade et al. – Cambridge ; New York : Cambridge University Press, 2022.
12. Task Force on Climate-related Financial Disclosures. *2023 Status Report* [Elektron resurs]. – Basel : Financial Stability Board, 2023. – URL: <https://www.fsb.org/2023/10/2023-tcf-d-status-report-task-force-on-climate-related-financial-disclosures/> (murojaat sanasi: 02.08.2026).
13. European Investment Bank. *EIB Investment Report 2024/2025: Innovation, Integration and Simplification in Europe* [Elektron resurs]. – Luxembourg : European Investment Bank, 2025. – 342 p. – DOI: 10.2867/8065730.
14. Network for Greening the Financial System. *NGFS Climate Scenarios for Central Banks and Supervisors. Phase IV* [Elektron resurs]. – Paris : NGFS, 2023. – URL: <https://www.ngfs.net/en/publications-and-statistics/publications/ngfs-climate-scenarios-central-banks-and-supervisors-phase-iv> (murojaat sanasi: 02.08.2026).
15. World Economic Forum. *The Global Risks Report 2024*. 19th ed. [Elektron resurs]. – Geneva : World Economic Forum, 2024. – URL: <https://www.weforum.org/publications/global-risks-report-2024/> (murojaat sanasi: 02.08.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>